

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

VASHINGTON IRVING IJODINING ILK DAVRI

Rasulova Soxiba Ulug‘bekovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili kafedrası o‘qituvchisi

rasulovasokhiba@gmail.com

+998997717141

Annotatsiya: Maqolada taniqli amerika yozuvchisi Vashington Irving hayoti va ilk ijodi haqida so‘z yuritiladi. Muallif ingliz tilidagi manbalar asosida Irving ijodini tahlil qilarkan, adibning dastlabki novellalari (Eskizlar kitobi) dagi real va komik sujetini romantik kayfiyatda ochib berishga harakat qiladi. Irving – yumorist o‘z o‘quvchisining his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi, tasavvur va aqlni rivojlantiradi. Ayni paytda maqolada Irving ijodida sharqona mavzudagi (Al-Hamro) turkumidagi rivoyatlarning o‘rnini ham tasvirlashga intiladi.

Kalit so‘zlar: novella, roman, romantiklar, realistlar, naturalistlar, almanax, parodiya, sharj, afsona, hindular, federalistlar.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни и творчестве известного американского писателя Ва́шингтона Ирвинга. Поскольку автор анализирует работу Ирвинга на основе английских источников, он пытается романтизировать реальный и комический сюжет ранних романов писателя (Sketchbook). Ирвинг-юморист культивирует чувства своего ученика, развивает воображение и интеллект. В то же время в статье автор также попытался установить роль восточеведных повествований в произведениях Ирвинга (Аль-Хамро)

Ключевые слова: новелла, роман, романтики, реалисты, натуралисты, альманах, пародия, шарж, индейцы, федералисты.

Abstract: Article deals with the life and early work of Washington Irving, a sensitive style writer, brilliant landscape painter, creator of humorous heroic chronicles, essayist and the first American author to succeed in both Europe and America. He was originally considered the father of American literature as his writing began to shape American identity. From an early age, Irving was interested in literature and books and read the works of European writers.

Keywords: novella, novel, romance, realist, naturalist, almanac, parody, cartoon, Indians, federalists.

Kirish

Mazkur maqolada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropa hamda Amerika romantizmni rivojlanishida Vashington Irving hayoti va ijodining o‘rni, romantizm prozasining badiiy tili va ifoda vositalari ilmiy izlanishlarning e‘tibor markaziga aylangan. Irvingning ijodini o‘rganishda, uning romantizmga bo‘lgan qiziqishini alohida ta’kidlash lozim. U romantik yozuvchi sifatida tabiatning go‘zalligini, inson his-tuyg‘ularini, shuningdek, xalq afsonalarini va folklorini tahlil qilgan. Shu bilan birga, u insonning ichki dunyosini va tarixiy qadriyatlarni yoritishda o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Amerika milliy adabiyoti tarixida, okean ortida, roman kabi muhim o‘rin tutgan qisqa hikoya-novella janrining istiqboli yozuvchi Vashington Irving nomi bilan bog‘liq. Bu janr XIX asr naturalistlari, realistlari va romantiklarini hamda XX asrdan to bugungi kungacha barcha yozuvchilarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Yevropa Irvingni AQSHdan oldin tanidi. Uning asarlarini Volter Skott, A.S.Pushkin, G.Geyne, I.V.Gyote [1. B. 114] N.Gogol kabi adiblar sevib mutolaa qilgan, u Dikens, Tekkerey, Belinskiy bilan zamondosh bo‘lgan va ular ham uni qadrlashgan edi. Irving Nyu-Yorkda, shahar hali mustamlaka bo‘lgan paytda tug‘ildi, chiroqlar bilan porlab turgan Brodvey hali mavjud emas edi, qaram dalalari va yaylovlar bilan qoplangan butun boshli Nyu-Yorkni bor- yo‘g‘i yigirma daqiqada aylanib chiqish mumkin bo‘lgan. Yozuvchining otasi, asli shotlandiyalik bo‘lib, Manxetten tijorat aristokratiyasi a‘zosi bo‘lgan va vino hamda sharob savdosi bilan shug‘ullangan, u o‘g‘liga huquqiy ta’lim berishga qaror qiladi va yosh Vashington uchta yuridik idorada huquqshunoslik bo‘yicha tahsil oladi, ammo dengizni va sayohat qilishni orzu qilardi. Bir marta, golland qishlog‘iga borib, u Gudzon daryosiga qayiqda sayrga chiqadi va Kaatskil tog‘larining ajoyib manzarasidan larzaga tushadi. Yovvoyi tabiat, o‘rmonzor yerlar, tog‘lardagi yorug‘likning sehrli o‘zgarishlari, go‘zalligi va rang-barangligi, quyosh yonib turgan binafsha osmon va tog‘lar uni hayratda qoldiradi. Keyinchalik Irving shunday yozgan edi: “Men Gudzon bo‘yida tug‘ilganimdan umrbod minnatdorman. Bu yerda tug‘ilish va ulg‘ayishning bebaho afzalligi daryo, ko‘l, tog‘lar kabi ulug‘vor va olijanob tabiat ne‘matlari bilan muloqotda bo‘lishdir” [2. B.39].

Yosh Irvingning kitobga qiziqishi ham kuchli edi. U yigitlik davrida Spenserni, Choserni mutolaa qiladi. Bolalik va o‘smirlik chog‘larida Qadimgi Dunyo adabiyoti uning yozuvchilik didini rivojlantiradi. Unda Yevropa madaniyatiga ehtirom va muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otadi. 1804 yil Irving Yevropaga boradi va Italiya, Shveysariya, Angliya, Gollandiya, Fransiyaning janubi va Parijga sayohat qiladi. Yevropada ikki yil bo‘lishi yosh Irvingning Yevropa adabiyoti haqidagi bilimlarini mustahkamladi. Parijda aniq va tabiiy fanlarni: kimyo, matematika va botanikani o‘rganish, uni Yevropa madaniyati va adabiyoti muxlisiga aylantirdi. Ayniqsa, yosh Irving dunyo tarixi bilan barobar qadimiy Yevropa tarixi, madaniyati maftuniga aylandi. Ammo bu sayohatlarni u hayotining ikkinchi qismida davom ettirib amalga oshirdi, yoshligida esa zamonaviy Amerikaga ko‘proq qiziqadi. O‘z yurtiga qaytib, bir nechta do‘stlari bilan XVIII asr Amerika esseistlari asarlari tipidagi, xususan, Eddison uslubiga asoslangan “Salmagundi” nomli almanaxni yaratishga kirishadi. Uning do‘stlari orasida endi istiqboli porlayotgan yosh

yozuvchilar Jeyms Golding, D. Dreyk, F.G. Xolding va Irvingning ukasi Uilyamlar bor edi. Ikki yil ichida (1807-1808) “Salmagundi”ning 20 ta nashri paydo bo‘ladi. Nomlanishidan ko‘rinib turibdiki, bu hazil aralash hajviy nashr edi. Maqsad mualliflar tomonidan shunday belgilangan: “yoshlarga ta’lim berish, eski narsalarni yangilash, shahar ahlini to‘g‘ri yo‘lga boshlash tufayli keng qabul qilingan salbiy odatlarni tanqid qilish”. Parodiya karikaturalarning hazil – mutoyibalari, o‘sha paytdagi “kiborlar” odob-axloqining komik eskizlari, siyosiy sharhlar – “Salmagundi” kitoblarining mazmunini tashkil etib, ular bilan tanishish, anonim va kutilmaganda paydo bo‘lib qoladigan hajviy xabarlar o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otgan. Bu Amerika tuprog‘idagi hajviy davriy nashrlarning birinchi namunasi edi. Monteskening “Fors nomalari” asariga taqlidan Irving va uning do‘stlari “o‘z arablari”ni yaratdilar - bosh qahramonni Mustafo Rab-e-dab Kelixan deb ataydilar. U go‘yo Monteske qahramonlari kabi Amerika Qo‘shma Shtatlarining siyosiy hayotini zimdan kuzatadi va buni o‘zining uzoqdagi do‘sti Azem Nakxemga tasvirlab nomalar yozadi.

Almanax mualliflari o‘zlarining siyosiy qiyofalariga ega edilar - ular federalistlar va prezident Djefferson siyosatiga karshi chiqishadi. Nyu-Yorkdagi federalistlar partiyasi “vaziyat hokimi” edi, yirik savdogarlarning manfaatlarini himoya qilardi. Shu sababli Nyu-Yorkdan chiqqan yosh yozuvchilar AQSH prezidentini almanax sahifalarida jasorat bilan “jig‘iga tegishardi”. Ular nafaqat prezidentning qizil shimlaridan, balki uning hukmronlik siyosatidan kulishib, uning o‘zini demagog qiyofasida tasvirlashardilar. Siyosiy partiyalar - federalistlar va demokratlar o‘rtasidagi kurash ham masxara qilinardi. Yosh jurnalistlar o‘z partiyalarini ham ayashmasdi, ular prinsipsiz siyosatchilarga hujum qilardilar, o‘z saflaridagi korrupsiya ro‘j qo‘ygan, demagoglik qilayotgan siyosatni foyda manbaiga aylantirish, hukumat lavozimlariga intiluvchi shaxslarni ochiqchasiga tanqid qilishardi. Siyosatchilar va Amerikadagi saylovlarning satirik obrazi “Salmagundi” sahifalarida keyingi romantik va realistik adabiyotning bitmas - tunganmas manbasiga aylanadi, keyinchalik bu almanaxda chop qilingan asarlar , Fenimor Kuperning risolalari, Edgar Allan Poning satirik hikoyalari, Bred Xardning publisistikasi, Mark Tvenning novellalari unga Bicher Stou, Uolt Uitmen, Teodor Drayzer va Djek London kabi adiblar undan taassufona yaratildi. 1809 yilning kuzida Nyu-Yorkdagi "Evening Post" (kechki post) gazetasida qora kamzul va uchburchak shlyapa kiygan kichik jussali Nikerboker ismli bir kekxa odam haqida maqolalar chiqadi: “Uning o‘zidaligi haqida shubha borligi va u haqida xavotir sababli, siz barcha ma’lumotni Malberi ko‘chasidagi Kolumbiya mehmonxonasi yoki gazeta tahririyatiga ma’lumot yuborishingizni so‘raymiz” qabilida e’lon beriladi. O‘n bir kun o‘tgach, "Sayohatchilar" belgisi ostida bunday odam paydo bo‘lganligi haqida xabar yana chop etiladi: Nikerbokerning Olbenga olib boradigan yo‘lda dam olayotganini ko‘rishadi; uning qo‘lida kichkina qizil tugun bor edi, chol charchaganga o‘xshardi. Noyabr oyida gazeta obunachilariga kolumbiyalik mehmonxona egasi Set Xandasaydning xatida mehmonxonada "qiziq qo‘lyozma"[3. B. 4-5] topilgani va agar Nikerboker qaytib kelmasa, mehmonxona egasi oldidagi qarzini to‘lash uchun bu qo‘lyozmaning nashr etilishi haqida aytilgan edi. Ko‘p o‘tmay, gazetaning “Adabiy eslatmalar”ida, “Nyu-York tarixi” («The History of New York»)

nashriyotida ikki jildlik, narxi uch dollar bo‘lgan, “Sirli ravishda g‘oyib bo‘lgan kekxa janob Ditrix Nikerboker tomonidan yozilgan asar” nomi bilan kitob nashr qilinadi. Bu ibratli adabiy yolg‘on haqiqiy amerikacha to‘qima va ommaviy reklama edi. Kitobni katta qiziqish bilan kutib olishdi: u nimalar yozgan? Irving tomonidan yaratilgan adabiy obraz jonlanadi - sirli taqdirga ega bo‘lgan odamga aylanadi va uning ichidagi har bir voqea afsonalar sirasiga o‘ralgan, ya‘ni romantik rangga ega edi. Kitob muvaffaqiyat qozondi. Adabiy jamiyatlar, jurnallar, kemalar, omnibuslar va savdo kompaniyalari "Nikerboker" deb nomlana boshlandi. Biroq, Irving hamon Olbeni shahridagi yuridik idora xodimi bo‘lib ishlayvergan va keyingi o‘n yil ichida juda kam narsa yozgan. 1815 yilda u Liverpulda otasining savdo kompaniyasining ishlari bilan shug‘ullanadi, o‘zi ham aksioner edi. Uch yil davomida Yevropada bo‘lish, yozuvchilar, rassomlar, aktyorlar bilan tanishish va eng muhimi, savdo kompaniyasining bankrot bo‘lganligi Irvingni professional yozuvchiga aylantirdi. Volter Skottning yordami bilan Irving o‘zining birinchi hikoyalar to‘plami- "Eskizlar kitobi" ni, ya‘ni 31 ta qisqa hikoyani o‘z ichiga olgan to‘plamni (1819 yil) nashr ettirdi va ko‘p o‘tmay ikkinchi, “Bresbrij Zali” (1822) to‘plamini ham e‘lon qild [4. B. 310]. Bu kitob kirish qismi bilan 50 ta kichik hikoyalardan iborat edi. Tez orada ikkala kitob ham fransuz va nemis tillariga tarjima qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Irvingning ilk ijodiy faoliyatida, u, ko‘pincha, romantizm va realizmning o‘rtasida turadi. Uning asarlarida fantastika va haqiqiylikning aralashishi, turli qahramonlar va syujetlar orqali o‘ziga xos tafakkur namoyon bo‘ladi. Masalan, “*Rip Van Winkle*” hikoyasida vaqt va xotira masalalari markaziy o‘rin tutadi. Irving, ayniqsa, tabiiy va sosial muhitning ko‘rinishini muhim deb biladi va uni hikoyalarida tasvirlashda mahorat bilan ishlaydi. Material qidirish maqsadida Irving Germaniyaga, Fransiya, Londonga sayohat qildi va yana Parijda bir vaqtgacha yashadi. Yangi hikoyalar to‘plami ustida ishladi, adabiy muhitdagi tanishlari doirasini kengaytirdi, rassomchilik, madaniyat bilan qiziqdi, taniqli haykaltarosh Kanova bilan uchrashdi. Irving o‘z davrining ko‘plab rassomlari bilan do‘stlashgan (Ch.Lesli, D.Uilki, E.Nyuton), uning o‘zi ham bo‘yoq va qalamda rassomlik mahoratini egallagan edi va bu uning adabiy uslubida ham seziladi. Musiqaga ishtiyoq - Bax, Motsart, Rossini - unga zavq bag‘ishlaydi, ammo adabiyotga bo‘lgan muhabbat barchasidan kuchli edi. Falsafa va adabiyot tarixini esa qadim dunyodan boshlab mukammal bilardi. Uning badiiy amaliyotida Aristotel, Gerodot, Epikur, Lukretsiy bilan tanishish izlari borligi bejiz emas. Irving o‘tgan asrlardagi Yevropa adabiyoti vakillari – Choser, Shekspirni sevib o‘qigan va ularga hurmat ko‘rsatgan, Rable, Cervantes, Svift, Samolet, Filding, Stern va zamondoshlari bo‘lmish Gyote, Shiller, Bayron bilan tanishgan. Bu jo‘shqin ishtiyoq va jozibali tabassum bilan, kashtan rangidagi sochlari, kelishgan qiyofasi bilan Irving boshqalar uchun yoqimli inson edi. U shoirlar, dramaturglar, musiqachilar bilan oson do‘stlashar, barchaga bajonidil yordam berar, libretto va kompozitsiyalardan iborat badiiy asar yaratarkan, biroq ularni imzolashga oshiqmaydi. Parijda yashagan paytida u tez orada juda foydali deb bilgan ispan tilini o‘rganadi. 1824 yilda Irving “Sayohatchi hikoyalari” («Tales of a Traveller») [To‘plam to‘rt qismdan iborat: 1- «Asabga tegar janobning g‘ayrioddiy

sarguzashtlari» («Strange Story of a Nervous gentleman»), 2 - «Baktorn va uning do‘stlari» («Buckthorne and His friends»), 3—«Italyan qaroqchilari» («The Italian Banditti»), 4—«Xazina izlovchilar» («The Money-Diggers»).] ni nashr etdi. Garchi Edgar Allan Po, Longfello va Stivenson bu qisqa hikoyalar (novellalar) ga qoyil qolsa ham, kitob burjua matbuotida qattiq tanqid ostida qoldi. «The New York Mirror» (Nyu York oynasi) gazetasi hatto uni «Bolalar hikoyalari» deb ham atadi. O‘zining eng yaxshi kitobi deb hisoblagan Irving, uning mazmuni va kompozitsiyasi benuqson bo‘lishi uchun juda ko‘p kuch va g‘ayratini sarflagan edi, biograflarning fikriga ko‘ra, shuning uchun u «tarix olamiga kirdi» va taniqli kishilarning tarjimai hollarini yaratdi. U tarix bilan umrining oxiriga qadar shug‘ullandi, ammo badiiy adabiyotni tark etmadi. 1826 yildan Irving Amerikaning Ispaniyadagi diplomatik vakolatxonasida ishga jo‘natiladi. U Madridga xursandchilik bilan jo‘nadi; uni mamlakatning qahramonona o‘tmishi, Ispaniya arxivlarida ishlash imkoniyati qiziqtirardi. Yoshlik g‘ayrati va bolalarcha shijoat bilan Ispaniyaning badiiy va qahramonlik tarixi olamiga sho‘ng‘idi. Yozuvchi amerikalik konsul Obadiya Richning uyida yashadi, bu odam juda noyob hujjatlar to‘plamini (Hispano-Amerika) jamlagan kishi edi. Irving Richning uyidagi noyob kitoblarda, qadimgi qo‘lyozmalarda tinimsiz izlandi. Kortezening maktublari, Lope de Vega tomonidan nashr etilmagan pyesalarning topilgani Irvingning g‘ayratini qo‘zg‘atgan edi. Avvaliga u Kolumbning sayohatlari haqida Martin Fernandes de Navarretning (XVI asrda yashagan ispan tarixchisi – Rasulova S.) ingliz tilidagi hujjatlari va materiallarini tarjima qilishga kirishdi, ammo keyin ularga asoslanib o‘zining «Xristofor Kolumbning hayoti va sayohatlari» («Life and Voyages of Christopher Columbus», 1828) nomli asarini yozadi. Qadimgi ispan yilnomalaridan ta’sirlanib yozuvchi o‘z ijodiga romantik lazzat va ozgina sarguzasht xarakterini berib, hamma narsani yorqin va ekstravagant uslubda tasvirlashni tanlaydi. Kolumb haqidagi kitob - uslubi va rang-barangligi bilan ajralib turadigan «adabiy mahorat zafari» [5. B. 250] sifatida tan olingan. Irving Ispaniya davlati arxivlarini, kollejlarning kutubxonalaridagi yozuvchi va tarixchi uchun noyob bo‘lgan kitob va qo‘lyozmalarni topardi. Uning tasavvurida Ispaniyada Mavritaniya hukmronligi davri («Yevropaning Sharqiy bosqini»), ispanlarning mavrlar bilan kurashlari, voqealar, adib aytganidek, uning «bolaligidan sevimli» manbalar edi. Yozuvchi O‘rta asrlardagi ispan antik davriga mukammal darajada moslashib, qissalarini o‘sha davr afsonalari ruhida mohirona hikoya qilardi.

Irvingning Ispaniya tarixiga oid kitoblari birin-ketin nashr etiladi: «Grenadaning bosib olinishi» («A Chronicle of the Conquest of Granada», 1829), «Kolumb hamrohlarining sayohati» («Voyages and Discoveries of the Companions of Columbus», 1832), «Ispaniyaning bosib olinish davri afsonalari» («The Legends of the Conquest of Spain», 1835) va hokazo. Yozuvchi vafotiga qadar uning qalami ostida ispancha mavzular va rang-barang asarlar paydo bo‘ladi. Ispaniyada yashab, yozuvchi ko‘p sayohat qildi; uning do‘stlari orasida Rossiya elchixonasida attashe bo‘lgan yosh knyaz Dolgorukov ham bor edi. Otda Irving va Dolgorukov Andaluziyaga borishadi, Mavritaniya shahrining qal’alari va xarobalarini ko‘zdan kechiradilar, Don Kixot mehmonxonasida tunashadi, kontrabandachilar va banditlar boshpana topgan

tog‘larga chiqib, Palosga tashrif buyurishadi, o‘sha yerdan Kolumb birinchi safariga jo‘nagan edi. Grenadaga sayohat va XIII-XIV asrlarda mavritanlar saroyi bo‘lgan Algambra qolish yozuvchida unutilmas taassurot qoldiradi. Irving uni besh kun tomosha qilmoqchi bo‘lib, u yerda to‘rt oy yashab qoladi. 1829 yilda Rossiyaning Ispaniyadagi elchisi rafiqasi Katerina Dobriliga yozgan xatida Irving bu ajoyib joyda baxtli bo‘lganligini, bu joy shu qadar romantikaga va g‘ayrioddiy voqealarga boy ekanligini, u qadimiy minoralardan va oydin tundan qanday qilib Mavritan malikasi salla bilan bezatilgan boshidagi olmosi bilan, oq harir yenglarini silkitgan quyidagi nasroniy ritsarga belgi berganligini aniq tasavvur qilganligini tan olib yozadi. Darhaqiqat, bunday tasvirlar Irvingning original poetik asari bo‘lmish “Algambra”(The Alhambra, or the New Sketch Book 1832) kitobining 31 bobdan iborat bo‘lgan har bir eskiz yoki novellada paydo bo‘lgan edi. 1829 yilda Irving Ispaniyani tark etadi va Londonga ko‘chib o‘tadi, u yerda ham diplomatik ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. U o‘z vataniga qaytishga shoshilmaydi va aytishicha, “kunlarining oxirigacha” Yevropada qolishga tayyor edi. U Vilyam Godvin va Meri Shelli bilan tanishadi, Irland shoiri Tomas Mur bilan Valter Skottnikida Abbatsforda mehmon bo‘lishadi. Irving Dikkinsni yuksak baholaydi, Pikvik obrazini jamiyat hayotining Don Kixoti deb ataydi. 1842 yil Dikkins AQSHga tashrif buyurganida Irving u bilan uchrashadi. Ammo Irving Dikkinsni “Amerika qaydnomalari” kitobi bilan “Amerika mehmondo‘stligi qonunlarini” haqorat qilgan kishi sifatida kechirmaydi va Irving Angliyada bo‘lgan paytlarida ham Dikkinsni boshqa ko‘rmaydi. Biroq, yozuvchi sifatida Dikkinsni maqtashda davom etdi. Irving 1832 yil AQSHga qaytadi. O‘sha yili u o‘zining yoshlikdagi do‘sti Pol Jeyms bilan birga AQSHning janubi va g‘arbiga sayohat qiladi, o‘zining “Preriyaga sayohat” kitobida bu haqda hikoya qiladi. Do‘stlar Gudzon daryosida suzishadi, Kaatskil tog‘larini ko‘rishadi, keyin Eri kanali bo‘ylab Gibson qal‘asidan otga minishib preriyalarning ichkarisiga qarab yo‘l olishadi. Egarda bir oy yurgandan so‘ng ular qayiqda Ogayo shahridan, Missisipi daryosidan o‘tib, Yangi Orleanga tushishadi, so‘ng Alabama, Jorjiya, Shimoliy va Janubiy Karolina shtatlarini dilijansda kesib o‘tishadi. Safar juda qiziqarli o‘tadi. Tog‘lar, o‘rmonlar, daryolar va ko‘llarda yo‘l boshlovchi bo‘lgan hindular Irvingni poetik tasavvurlari, sarguzashtlari, boy istehzo va satirik hikoyalari bilan yozuvchini lol qoldirishadi. Haqiqiy hindularning qahramonliklarini sinchkovlik bilan o‘rganib, Irving ular umuman adabiyotda tasvirlanganlarga o‘xshamaydi, degan xulosaga keladi. Ular faqat o‘zlari ishonmaydigan odamlar oldida sukut saqlashadi. Hindular ajoyib mimistlar va aktyorlardir, yolg‘iz qolishganlarida tanqid va satiraga to‘liq berilishadi. Hindularning bunday “tabiiy ta‘rifi” Amerika adabiyotida ilk marta paydo bo‘ladi. Irvingning hindular tasviridagi xotirjamligi va ba’zida g‘azabining paydo bo‘lishi o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Kitobda shunday muhim epizod beriladi: ko‘chmanchi oq tanlilar ot yo‘qotishadi, ertalab yosh hindu muallifni xushbichim qomati bilan qoyil qoldirgancha, ot hindularning lageriga borganini aybsiz ravishda tushuntirib, otni keltiradi. G‘azablangan ko‘chmanchi “o‘g‘riga” tashlanib bechora hinduni bog‘lab urmoqchi bo‘ladi. Irving bu mavzuda chegaradagi shafqatsiz frontirlar-mustamlakachilar haqida hikoyalar yozadi va ularni talonchi ham, da‘vogar ham, guvoh ham,

sud ham va palata ham o‘zlari deya tanqid ostiga oladi. Ularning bunday noo‘rin harakatlari hindularning qasosiga va to‘xtovsiz urushlariga olib keladi, deya ta’kidlaydi. Irving o‘sha davr mo‘yna qiroli jon Astor taklifi va byurtmasi asosida “Astoriya yoki Rokki tog‘lari ortidagi rivoyatlar korxonasi” (1836) asarini yozadi. Undan keyin adib “Qoyali tog‘lar yoki Uzoq G‘arbdagi voqealar va sarguzashtlar. Kapitan B.L.E. Bonvill kundaligi asosida” (1837) asarini ham e‘lon qiladi. Jon Astor - oilasi bilan Amerikaga kelgan nemis, cho‘ntagida fakat fleyta va 25 dollari bilan kelgan Astor keyinchalik pul ishlab topadi va bir necha o‘n yillar davomida ishlab, Kolumbiya daryosi qirg‘og‘ida 1805 yilda Astoriya shahriga asos soladi va mo‘ynalarni sotib 20 millionlik boylik to‘playdi. Astoriya mo‘yna savdosining markaziga aylanadi. Astoriya orqali Rossiyadan mo‘yna sotib olish va ularni Xitoyga qayta sotish yo‘lga ko‘yiladi. Irvingning bolalik va yoshlik davridagi do‘sti Genri Brevurt Jon Astorning qo‘l ostida savdo agenti bo‘lgan, yozuvchining ukasi Uilyam ham mo‘yna sotish bilan shug‘ullangan. Ular Irvingga bajonidil "hujjatlar" va xotiralarni taqdim etardilar; Astoriya tashkil topgan vaqtdan beri bir dasta qog‘oz va xatlar ham Astorning o‘zidan olinadi; Irving Astor bilan birga Kolumbiya daryosi bo‘yida shaharga asos solgan odamlar bilan uchrashadi. Astorning uyida u ekspeditsiyaga boshchilik qilgan kapitan Bonnvill bilan uchrashdi, uning harbiy departamenti hindularning harbiy qurollari, jixozlari va kiyimlari bilan bezatilgan edi. U unga ko‘plab sarguzashtlari aytib beradi.

Metodologiya

Irving ijodi davrining metodologiyasi – adabiyotda romantizmning o‘ziga xos yondashuvlarini, xalq og‘zaki ijodi elementlarini, hazil va satira usullarini birlashtirgan. U tarixiy fantastika orqali milliy tarixni va madaniyatni yangicha shaklda tasvirladi, shuningdek, yangi amerika jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning o‘zgarishini chuqur tahlil qildi. Irvingning ijodiy metodologiyasi, adabiyotning yangi bosqichlarini yaratish bilan birga, amerika adabiyotining shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

Irving kapitan Bonnvillning qulyozmalarini sotib oladi, bu kitob asosini tashkil etuvchi kundaliklar, ekspeditsiya kartalari edi. Irvingning ikkala asari o‘sha zamon Amerika ziyolilarining keskin tanqidiga sabab bo‘ldi. Kuper Irvingni "parazit"- e‘tiqodsiz kishi deb ataydi. “Astoriya” paydo bo‘lganidan keyin Kuper nafrati bilan “Kolumb va Jon Jakob Astor”, deya istehzoli xitob qiladi va qo‘shib qo‘ydi: "Ajoyib"odamni topdingiz!"[6. B. 330]. Darhaqiqat, ushbu ikki kitobning paydo bo‘lishi Irvingga shuxrat keltirmaydi. Biroq, uning mavqei aniqlikni talab qilardi. O‘sha paytda shimoliy-g‘arbiy Amerikani tasvirlab, birinchi mo‘yna savdogarlari hindular oldiga kelganlarida hozirgi Kanada hududida joylashgan hindu qabilalariga nisbatan Irvingning mehribonona munosabati o‘zgarmagan. Ilgari bo‘lgani kabi u hindular kelgindilar bosimi ostida qirilib ketayotganligini yaxshi tushunadi; u hindularni, ularning tabiatan olijanoblighi, fe‘linig kuchliligini qadrlaydi; tub amerikalik ayollar shu qadar irodaliki, ular hayratga solib ilhom bag‘ishlaydilar. Irving tub amerikaliklarning "she‘riyati va romantikasini", ovchilar, baliqchilar to‘g‘risidagi afsonalari yaxshi ko‘rardi. Ammo qita egalariга mansub odam sifatida, u hindularni tarixan mahkum bo‘lgan deb hisoblardi: shundan

"tarix g'ildiragi"ni orqaga qaytarilishini mumkin bo'lmagan "sivilizatsiya qadamlari" deb xisoblardi. "Aqli raso" Irving hatto Kuperning romantikasini hindularning taqdiri qiyofasidagi maktablar orqali mazax qilishga moyil. Uning diqqat markazida yevropaliklar turadi. Ular aql bovar qilmaydigan qiyinchiliklarga duch kelishadi, haqiqiy jasorat egalari, ularning turmush tarzi gohida "yirtqichlar" darajasiga teng [2] Parrington Irzingning, "Astoriya" muallifining pozitsiyasini "Kompromis falsafasi" deb ataydi va kinoya bilan qo'shimcha ravishda: "Ajoyib ekspluatatsiyada Irving yangicha romantikani ko'rdi va soxta oldi-sotdi daromadida Yaratganning ishini ta'kidladi"; "Chiroyli hodisalarni qidirish uni bo'm-bo'sh sahroga olib keldi"[7. B. 244-247]. Irving ularning xatti-harakatlarida biron narsani jalb qiladigan, romantik hodisalarni ko'radi, shuningdek ular nima sababdan bu xarakatni sodir qilishayotganliklarini unutadi. Unga badiiy didi pand beradi: "nafs bandalari" qiyofasidada u qahramonlarni ko'radi, ammo bu pozitsiyaning ham izohi bor. Irvingning yoshligi o'sha mamlakatda kechadi, sanoat, savdo rivojlanmagan edi; kichik shaharlar va ularning aholisi qishloq turmush tarzini olib borishgan. Hammani poliz ekinlari bilan boqadigan shaharchani Irving o'zining dastlabki qisqa hikoyalarida tasvirlaydi.

Natijalar va muhokama

Qariyb yigirma yildan keyin uyga qaytgan yozuvchi o'z mamlakatining sanoat rivojlanishi ko'rib hayratda qoladi. U yurtining gullab-yashnashi bilan mag'rur edi, bu tuyg'u bilan ikkita muvaffaqiyatsiz asarini yaratishda rahbarlik qildi. Ammo ularni Irvingning tasodifiy asarlari deb hisoblash mumkin emas: ular yozuvchining siyosiy befarqligidan kelib chiqadi. Ikki-uch yil oldin u bu kitoblarni chop etmasdan ukasi Peterga [8. B. 58] shunday deb yozib qoldirgan edi: "Siyosatdan uzoqligim borasida haqsan. Qancha ko'p siyosiy hayotga nazar tashlasam, men undan shuncha ko'p nafratlanaman ... Bunday beadablik, qo'pollik mavjud ekan, men bu urushda qatnashishni xohlamaymanan, soxta saylov, hiyla-nayranglar aralashtirilgan iflos hiylalarga aloqador bo'lishni istamayman". Iflos siyosat ishlaridan chetlanib, lekin natijalarni xotirjam qabul qilish, ushbu siyosat va hatto ishbilarmon-konkistadorlarning ishlarini romantiklashtirish - bu estetik va konservativ pozitsiya edi. U so'nggi ijodiy ishlarini shu pozitsiyadan yaratadi. O'zining Gudzon qirg'og'idagi shinam va qo'lay, "Quyoshli tomon" deb nomlanuvchi qarorgohida Irving butunlay kitob va qo'lyozmalarga sho'ng'ib ketadi. Hayotning so'nggi o'n yilliklarida roman janriga yaqin bo'lgan tarjimayi hollarga berilgan. Masalan, "Oliver Goldsmit" (1849) shunday asar. Bu yerda hikoya ko'rinmas tozalagich orqali, romantikaning dramatik o'ziga xosligini o'zida mo'jassam qiladi. Ba'zan bunday kitoblar falsafiy rang-baranglikni kashf etadi, masalan "Muxammad payg'ambar va uning vorislari" yoki patetik tus olgan monumental tadqiqotga aylanardi. Jorj Vashington hayotining besh tomlik tarixi ham shunday bo'lib, uning ustida Irving 34 yil, ya'ni 1825 yildan hayotining so'nggi kunlarigacha ishlagan. Ko'p yillar davomida u prezident Vashingtonning Davlat departamentidagi arxiv hujjatlarini barcha nashr etilgan tarixiy manbalarni, shaxsiy to'plamlardagi juda ko'p miqdorda bo'lgan esdaliklar va keng qamrovli yozishmalarni o'rganib chiqqan. Irving o'z mamlakatining yaqin inqilobiy o'tmishi bilan

faxrlanib, o‘z hayotini unga bag‘ishlaydi va ulkan ishlarni amalga oshiradi va bu uning vatanparvarligini ifodasiga aylanadi.

Xulosa

U Vashingtonni nafaqat ozodlik urushi qaxramoni, davlat arbobi va AQSH ning birinchi prezidenti sifatida tasavvur kiladi, balki Amerika [9. B. 47] adabiyotini homiysi sifatida xam tasvirlaydi. Bundan tashqari yozuvchi Vashingtondan boshlanuvchi Amerika tarixini o‘z adabiyoti uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai sifatida ko‘rsatadi. Shuni aytish kerakki, Irvingning ushbu bashorati haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, o‘sha paytgacha bu sohada ilg‘or ijod qilgan faqatgina Amerika tarixiy romanini yaratgan yosh Fenimor Kuper bo‘lib qoldi va u ham bu davrga kelib olamdan o‘tib bo‘lgan edi. “Buyuk odam”ning haykali va “o‘zining eng qiziqarli kitobi” deb nomlangan so‘nggi asarining beshinchi tomini chop etishga ulgurgan, Vashington Irving bir necha oydan so‘ng vafot etadi. Uni ilk novellalarining birida kuylagan “Uyqu darasiga” [10. B. 14] sokin joyga dafn etishadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ирвинг, В. Елистратова, А.А. История Американской литературы : пер. с англ. / изд. подгот. – Москва: Наука, 1947. Том 1. – 362с.
2. Wagenknecht, Edward. Washington Irving : Moderation Displayed. New York: Oxford University Press, 1962. 223 pp.
3. Lydenberg, Harry Miller. Irving's Knickerbocker and some of its sources. New York,: New York Public Library, 1953.235 pp.
- 4.Новеллы /перевод А. Бобовича; Вступ. статья Е.Лопревой. – Москва-Ленинград, Гослитиздат, 1954. –Новелла VII Юстиниана. 310 с.
- 5.Brooks V.W. The world of Washington Irving. New York: E. P. Dutton & Co., 1944. – 250 p.
- 6.Brooks V.W. The world of Washington Irving. New York: E. P. Dutton & Co., 1944. – 330 p.
- 7.Паррингтон В.Л. Основные течения американской мысли, т.2. Революция романтизма в Америки. М.,1964-244-247с.
- 8.Irving W. The sketchbook. – New York: The Book League of America. 1939. – 404 p.
- 9.Irving W. Diedrich Knickerbocker’s A History of New York, ed. With an introd. by S.Williams and T. McDowell.-New York: Harcourt, Brace &Co., 1927.-475 p.
- 10.Уильямс Ст. Вашингтон Ирвинг. Том 1, / Перев. с англ. – Вкп; Литературная история США. – Москва: Прогресса, 1977. 605с - 298-309с.